

**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI JOQARI
BILIMLENDIRIW, ILIM HÁM INNOVACIYALAR
MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASI MÁDENIYAT HÁM
TURIZM MINISTRILIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHISI

ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSÍQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI

Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА

Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART

Scientificmethodical journal

№ 1

SHOLKEMLESTIRISHI:

O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi Nokis filiali

- Bas redaktor:** – Allanbaev Rudakiy, professor w.w.a
Bas redaktor orinbasari: – Kamalova Dilduza, filologiya ilimleri boyinsha
filosofiya doktori (PhD)
Juwapli xatker: – Gulmira Palwanova

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

- Omonilla Rizaev** – O'zbekiston mamleketlik k'rkem oner ham mad'niyat
institut'i, professor w.w.a.
Hikmat Rajabov – O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi Nokis filiali,
professor w.w.a.
Sayyora Gafurova – O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi, professor
Oydin Abdullaeva – O'zbekiston mamleketlik konservatoriyasi, professor.
Qurbanbay Jarimbetov – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, professor.
Alima Berdimuratova – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, professor.
Ziyada Bekbergenova – OzR IA Qaraqalpaqstan bolimi, professor.
Oqilxon Ibragimov – O'zbekiston mamleketlik k'rkem oner ham mad'niyat
institut'i, professor.
Azizbek Turdiev – O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlis Senatm'n jaslar,
mad'niyat ham sport mas'eleleri komiteti baslig'i
orinbasari, filologiya ilimleri boyinsha filosofiya
doktori (PhD).
Allanazar Abdiev – Filologiya ilimlerinin kandidati, Qaraqalpaqstan Respublikasi
xaliq jazirshisi
Artiqbay Erejepov – Nokis qalaliq 1-sanli balalar muzika ham k'rkem oner mektebi,
pedagogika ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD).
Janabay Marziyev – Qaraqalpaq mamleketlik universiteti, filologiya
ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD), docent.
Iroda Mirtalipova – OzMK janindagi B.Zokirov atindagi MEKOl, k'rkem
onertanir ilimleri boyinsha filosofiya doktori (PhD).

JAMIYETLIK KENES:

- | | |
|-----------------------|-------------------------|
| Baxtiyor Sayfullaev | Najimatdin Muxameddinov |
| Ozodbek Nazarbekov | Najimatdin Ansatbaev |
| Komoliddin Urinbaev | Gulistan Annaqlicheva |
| Dawitbay Qurbaniyazov | Rayxan Saparova |
| Qalbay Turdiev | Paraxat Mamutov |

MAZMUNÍ

Алланбаев Р. Миллий мәдениятымызды рауажландыруу жолында және бир кәдем	3
---	---

MUZİKATANIW

Мамутов П.А. Замангөй музыка тәлим системасын жетилистириүде руухыйлыктын орны	5
Пахратдинов Ш. Работа над произведением крупной формой	10
Sayidov T. D. Xonandalik ovozing fiziologik va akustik xususiyatlari	14
Мирталипова И.М. Ҳинд мусика назариясидаги товушкатор структураларига бир назар	16
Raimova D.M. O'rta Osiya musiqa cholg'ularining paydo bolish tarixi	20
Расулов М.М. Мусика, теле ва радио дастурларнинг муҳим компоненти ва композицион омили сифатида (темп, ритм, импульсивлик мисолларида)	23
Matyakubova U.G'. V-XV asrlar markaziy Osiyada musiqa madaniyatining nazariy asoslari	28

KÓRKEM ÓNER

Ражабов Х.Ж. Арсланбай Нажимов ижодига бир назар... ..	33
Matimuratov S.E. Qaraqalpaq kompozitori Kenesbay Abdullaev dóretiwshiligi haqqında	35
Qutekeeva R.A. Qaraqalpaq kórkem ónerinde Ilish Xojametovtın tutqan ornı	39
Allaniyazov B.Q. Muzika kórkem ónerinin bayteregi (<i>Kompozitor Najimatdin Muxammeddinovtın ómiri ham dóretiwshiligi haqqında</i>)	44
Чаршемов Ж.А. «Қоблан» балетининг композицион хусусияти	48
Абдуллаева Ш.С. Труд все побеждает	57
Abatbaeva R.A. Qaraqalpaq kórkem ónerinde kompozitor Gayıp Demesinovtın tutqan ornı	61
Палўанова Г.А. «Аязий» драмасында кахарман характерин сәулелендириўдиц өзине тән қасийетлери	65
Палўанова Г.А. Каракалпакстанда театр режиссурасының пайда болыуындагы миллий дәреклер	68
Muxammeddinov Q. Milliy opera ham balet janrdagi tariyxiy shigarmalar	71
Parmonov D.R. «Doira va urma zarbli cholg'ulari» musiqa san'atining yorqin namoyondasi	75
Каримова И.И. Традиции исполнения музыки Каракалпакского композитора Гаип Демесинова	78

ATQARIWSHILIQ ÓNERI

Erejepov A.A. Baqsishılıq kórkem ónerinde dóretilgen qosıq ham namalarını jaslar tarbiyasındaǵı aǵmiyeti	83
Tnıbaev P.K. Dirijyorlıq kórkem ónerinin túrleri ham evolyuciyası	87
Шарипова А.Р., Сидикова А.М. К вопросу о фортепианном исполнительском искусстве в Узбекистане	92
Ayubov K.Z. Foniologiya va odam ovozi tasnifi	95
Ziyovutdinova Z.U. XIX asrning ikkinchi yarimida o'zbek xalq cholg'ulari ijrochiligi sohasidagi jiddiy o'zgarishlar	98
Dadaboyev X.M. Xalq cholg'ulari ansambllarini tashkil etish	100
Aliev N.G. Demli saz asbaplar tariyxı, klassikalıq muzika ham onın búgingi kúndegi tutqan ornı	102

Saidxonov A.S. Cholgʻu konsert janrı tarixı va taraqqiyoti	105
Jumabaev A.E. Qaraqalpaq kórkem ónerinde xalıq namalı qosıqlarınm tutqan orm	110

MUZIKA PEDAGOGIKASI

Xojanazarov T. Vokal pedagogikasidagi metodlardı zamanagóy pedagogikaga aylandıırıw usılları	115
Ходжаметова Г.И. Задача обучения, воспитания и развития детей в музыкальной школе	117
Botirova X.T. Musıqa taʼlimi pedagogikasida oʻquvchi yoshlarni maʼnaviy-axloqiy taʼlim-tarbiyasini shakllantirish	121
Saidumarov I. Taʼlim-tarbiya va shaxsning maʼnaviy kamoloti xususida sharq allomalarining qarashlari	124
Абдисултанов Ж.Дж. Болалар мусика ва санъат мактабларида «Мусика адабиёти» фанини ўқитишда инновацион ёнлашув	128
Матёқубов Э.Г. Мусикада модулли таълим асослари	131
Najmetdinova N.I. Maktabgacha taʼlim tashkilotlarida bolalarning mustaqil musiqiy faoliyatining ahamiyati va mazmuni	137
Iseev R.A. Fortepiano paninin jahon muzika oqıw procesindagi ahmiyeti ham orm	141
Dauletbaev T.K. Milliy saz asbaplarm mektep oqıwshılarma ўyretiwđin ahmiyeti	145

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

Бекбергенова З.У. Қарақалпақ халық дәстаны «Қырық қыз» хэм хэзирги қарақалпақ драматургиясы	150
Утепова Т.Б. Маданиятлараро мулохот таҳлиллари Европа олимлари назарида	153
Жумашева А.Х. Интерактивные приёмы и формы проведения практических занятий	159
Саденова Г.П. Қарақалпақ паремиологиясында жақсылық концепти	163
Mambetnazarov M.K. Хожа Ахмет Яссавий hikmetlerinin jaslar tarbiyasidagi ahmiyeti	166
Марзияев Ж.К. Мақаланың публицистикалық сыпатламасы	169
Камалова Д.Э. Шығарма композициясында турмыс шынлығын сәулендириў шеберлиги	171
Мамбетназарова Р.К. Идеино-тематические особенности жанр путешествия в Каракалпакской литературе (на примере «Путешествия в пять стран по океану» Тажсена Изимбетова)	175

JAS IZERTLEWSHILER

Paxratdinov J.A. Kop qırlı talant iyesi	180
Jumamuratova A.A. Qaraqalpaqstanda Opera janrınn tutqan orm	181
Muratbaeva A.A. Jaslardın muzikalıq intellektın asırıwda muzika sınshısı Gulmaryam Kamalovanın orm	185
Orazalieva G.S. Güllengen dawırde — Jana namalar (Jamil Charshemov dóretpeleri haqqında)	186
Segizbaeva G.Q. Qaraqalpaqstanda daslepki muzikalıq drama janrınn payda bolıwı	188

2. Zamanagóy aranjirovkalardı orınsız isletpew, sebebi zamanagóy ásbaplar mudamı avtor qoyǵan dawıstın baylıǵın jetkize almaydı, bul jumıs ushın arnawlı ásbaplardı tanlaydı.
3. Televizor ham Televedenie tásirinen paydalamp, klassikalıq muzıkam abıroylı, modaga aylandırıw.
4. Mekteplerde balalarga sapalı muzıkalıq tálim beriw. Osip kámalga jetkeninde, jigitler kóbinese bul temaga dus keledi ham olar arzan pop muzıkası ham joqarı sapalı professional muzika ortasında tanlaw etiwi kerek boladı.
5. Muzika ham klassikalıq muzika kórgizbesin ten salmaqlılıǵı. Olar 90:10 % koefficientte emes, balki keminde 50:50 % bolıwı kerek.

Paydalanılǵan ádebiyatlar:

1. *Березин В.В.* Черты стилистической эволюции дивертисментов и серенад Моцарта для духовых инструментов // Стилиевые особенности исполнительской интерпретации. — М., 1985
2. *Левин С.* Духовые инструменты в истории музыкальной культуры. 4.1.Л., 1973.
3. *Левин С.* Духовые инструменты в истории музыкальной культуры. 4.2.Л.,1983.
4. *Салихов Б., Матякубов Б.* Ўзбекистонда дамлаи ва зарбли чолгуларда ижрочилик тарихи. Т., 2007.
5. Эжен Эмануэль Виолле-ле-Дюк Жизнь и развлечения в средние века. — СПб: «Евразия», 1997.

CHOLG‘U KONSERT JANRI TARIXI VA TARAQQIYOTI

Saidxonov A.S.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi Nukus filiali

Annotatsiya: Ijrochilik yo‘nalishida musiqiy asarlarning ijrosigina emas, balki ularning shakli, mazmuni, tarixi va kelib chiqishini o‘rganish musiqachining asarni yuqori saviyada ijro etishiga zamin yaratadi. Ushbu maqolada cholg‘u konsert janrining tarixi va evolyutsiyasi muhokama qilinadi. Maqola mazkur yo‘nalishdagi o‘rta maxsus va oliy ta‘lim muassasalari talabalari va o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan.

Kalit so‘zlar: konsert, shakl, orkestr, concerto grosso, o‘rta asr madaniyati, temp, barokko davri, vena klassiklari, klavir, partitura, polifoniya.

Аннотация: В сфере исполнительства не только исполнение музыкальных произведений, но и изучение их формы, содержания, истории и происхождения создает музыканту почву для исполнения произведения на высоком уровне. В данной статье рассматривается история жанра инструментального концерта и его эволюция. Статья предназначена для студентов и преподавателей средних специальных и высших учебных заведений по данному направлению.

Ключевые слова: концерт, форма, оркестр, Concerto Grosso, средневековая культура, темп, период барокко, венская классика, фортепиано, партитура, полифония.

Annotation: In the field of performance, not only the performance of musical works, but also the study of their form, content, history, and origin sets the stage for the musician to perform the work at a high level. This article discusses the history of the instrumental concerto genre and its evolution. The article is intended for students and teachers of specialized secondary and higher educational institutions in this field.

Keywords: concerto, form, orchestra, Concerto Grosso, medieval culture, tempo, baroque period, Viennese classics, piano, score, polyphony.

Yevropa musiqa madaniyatida, vaqtning jonli aloqasi eng qadimgi janrlar misolida ravshanlik bilan namoyon bo‘ladi, uni cholg‘u konsert janri orqali bilib olish mumkin. Musiqaning tarixdan

rivojlantirib taraqqiy etishi, musiqiy janrlar taqdiriga bog'liqdir. Konsert — bu so'z hammaga yaxshi ma'lum, lekin har kim uni o'ziga xos tarzda qabul qiladi va tushunadi. Kimdir uchun bu sevimli estrada xonandalarining katta zallarda, stadionlarda chiqishi bo'lsa, kimdir uchun bu go'zal, xashamatli filarmoniya zalida jahon mumtoz musiqasi ijrosidir. Boshqacha qilib aytganda, oldindan rejalashtirilgan dastur bo'yicha turli janrdagi kompozitsiyalar tomoshabinlar e'tiboriga havola etiladigan yirik tadbir shunday nomlanadi. Biroq, bu atama boshqa ma'noga ham ega, ya'ni bu bir necha asrlar oldin paydo bo'lgan va boy tarixga ega bo'lgan mashhur musiqiy janrning nomidir. Hozirgi vaqtda tushuntirish uchun uni cholg'u konsert deb atash odatiy holdir.

Konsert so'zining ikki xil kelib chiqishi mavjud: lotinchada **«concertare»**, **«raqobat»** - degan ma'noni anglatadi va italyanchada **«concerto»**, ya'ni **«rozilik»**¹. Bu qo'sh ma'no shu janrning ma'nosi va o'ziga xosligidir. Konsertning ansambl ijrosi shakli sifatidagi tarixi qadimgi davrlarga borib taqaladi. Yakkaxon ijrochi bilan bir nechta cholg'u asboblarni birgalikda chalish ko'plab xalqlarning musiqa madaniyatida uchraydi. Ammo bu atamaning o'zi Uyg'onish davrining oxirida, XVI asrda, Italiyada paydo bo'lgan. Cherkovlarda ijro etiladigan polifonik vokal asarlarini ham shunday nomlashgan. Bunday asarlar ikki yoki undan ortiq qo'shiqchilar partiyalarini taqqoslash (tanlov) asosida yaratilgan, ularga organ bazida esa cholg'u ansambllari jo'r bo'lgan. Keyinchalik bu nom bir nechta asboblardan uchun kamer kompozitsiyalariga o'tdi. Shunga o'xshash konsertlar XVII asr boshlarida uchraydi, ammo shu asrning o'rtalariga kelib konsert orkestr uchun yozilgan asarga aylandi va yangi **«conserto grosso»**² nomini oldi.

Ilk o'rta asrlardan boshlab nasroniylik cherkovi hamma sohada hukmronlik qildi va cherkovda cholg'u musiqasi jo'rnavorlik sifatida rivojlandi. Uyg'onish davri orkestrlari va keyinchalik barokko orkestrlari asosan saroy yoki cherkov orkestrlari edi. Natijada Italiyada «orkestr» so'zi paydo bo'ldi. Italiyada orkestr har doim musiqaning vokal qismini emas, balki aniq cholg'u ansambli nazarda tutilgan. Ushbu tushuncha Evropa davlatlariga bir vaqtda kirib bormagan va turlicha qabul qilingan. Masalan, Germaniyada bu so'z ayrim davlatlarga qaraganda ancha kechroq kirib keldi. XVI–XVII asrlar oxirida vujudga kelgan opera janri orkestrga ham o'zini yetarlicha tasirini ko'rsatdi.

Cholg'u konserti Yevropa musiqasining eng qadimiy janrlaridan biridir. Tarixda musiqashunoslikni rivojlanishi albatta musiqa janrlarida namoyon bo'ladi. Cholg'u konsert janri hayotiyli bilan o'ziga xosdir, u paydo bo'lganidan buyon asrlar davomida buyuk kompozitorlarni o'ziga rom etti. XVII asr cholg'u konsertining buyuk namoyondasi Arkanjello Korelli konserto grosso janrining birinchi klassik namunalarini yaratuvchisi bo'ldi. Uning konsertlari qoida tariqasida, ko'p qismli bo'lib, alohida qismlar ko'pincha qadimgi raqslarning nomlari bilan belgilandi, lekin ko'pincha kompozitor faqat temp ko'rsatkichlari bilan cheklandi. Shu bilan birga, kompozitorda musiqani tez va sekin templarga almashtirish istagi aniq seziladi. Tez va sekin harakat o'rtasidagi bunday qarama-qarshilik, yakkaxon ijrochilar o'zlarining mahoratlatini, xissiyotga to'la kantilenalarini ko'rsatish imkoniyatiga ega bo'lib, cholg'u asbob ovozi inson ovozining kuylanishiga qiyoslash, cholg'u konsert janrining zamonaviy o'zgarishlarga ega bo'lgan umumiy belgisiga aylandi³.

A. Korelli ijodida konserto grosso janri musiqa sohasidagi davrning asosiy yutuqlarini sintez qildi; tez-sekin-tez temp shakli jarayoni rivojlanishi, cholg'u sonatasi va syuitasi elementlarini birlashuvi (raqssimon va noraqqssimon qismlar). Buyuk italyan kompozitori Antonio Vivaldi (1677–1741) ijodida uch qismdan iborat cholg'u konsertning an'anaviy tuzilishiga ega bo'lgan asarlar yaratdi. A. Vivaldi ijodida konsert yangi sifat va o'zgacha ichki ma'no kasb etdi. Tez-sekin-tez sxema bo'yicha konsert siklining uch qismli tuzilishi hozirgi kungacha saqlanib qolgan.

¹L.N.Raaben // **Konsert** — «Musiqa ensklopediyasi» Moskva – 1974 yil, II tom, 922 bet.

²Ushbu atamani birinchi bo'lib Arkanjello Korelli orkestr uchun yozilgan asarlarida qo'lladi. Italiyanchadan tarjima qilinganda «Katta konsert» deb yuritiladi.

³Arkanjello Korelli (1653–1710) – mahoratli italiyalik skripkachi va kompozitor, 1675–1713 yillarda faol va samarali ijod qilgan.

Cholg‘u konsert janri o‘z-o‘zidan paydo bo‘lmagan, u xalq musiqasi san‘atidan, o‘rta asrlar Yevropa madaniyatidan boshlangan cholg‘u asboblari birgalikda chalish an‘analarini o‘ziga singdirgan. Gap shundaki, cholg‘u konsertida mazmun-mohiyati bo‘lgan musiqachilar raqobati tamoyili birinchi o‘ringa qo‘yildi. XVII–XVIII asr boshlari cholg‘u konserti janri musiqachi – cholg‘uchilarning birgalikda ijro etish tamoyilining eng yuqori ifodasidir. Cholg‘u konserti boshqa musiqiy janrlar singari tarixdan bir-biriga o‘xshash bir qancha tipologik shakllarni birlashtirdi. Konsert evolyutsiyasida turg‘un va o‘zgaruvchanlikning kombinatsiyasi, janrning asosiy xususiyatlari va bu xususiyatlarning turli xil sinishi paydo bo‘ldi. Cholg‘u konsert janri raqobat, yakkaxon cholg‘u va orkestr o‘rtasidagi raqobat tamoyiliga asoslanadi, ular tinimsiz muloqotda bir-birini ustunlik uchun da‘vo qilayotgandek go‘yo. Bunday muloqot tamoyillari XVII asrda Italiyada shakllangan.

1720–1730 yillardan boshlab Germaniyada bu turdagi janrlarga qiziqish sezilarli darajada oshdi. Jamoatchilik musiqa hayotining yuksalishi, musiqa ijodining yangi shakllari, turli musiqiy jamoalarning vujudga kelishi kompozitorlar oldiga sof konsert dasturini yaratish vazifasini qo‘ydi. Natijada esa, yakkaxon konsert muammolari paydo bo‘ldi. Konsertga bo‘lgan ishtiyoq musiqachilar uchun, ularning ijodiy yo‘nalishi va maktabidan qat’i nazar universal bo‘lib qoldi. Bu davrda yuksalib borayotgan italiya skripka maktabi yakkaxon dunyoviy musiqaning yangi shakllarini rivojlantirdi, ular tobora keng tarqalib, muvaffaqiyat qozondi. Yakkaxon cholg‘u konsertlarning turli xil turlari – kamonli torli yoki puf lama asboblari uchun ishlab chiqildi. Keyinchalik ularga klavir, zamonaviy fortepiano qo‘shildi.

Italiyalik kompozitorlarning samarali faoliyati I. S. Baxni dunyoviy cholg‘u konsert musiqasining turli xil turlarini yanada rivojlantirish zarurligi g‘oyasini mustahkamladi. Klavir konsertining asoschisi, uning ilk namunalarini yaratgan kompozitor I. S. Bax bo‘lgan. Baxning ko‘plab klavesin konsertlari – italiyalik kompozitorlarning skripka konsertlari yoki o‘zining skripka konsertlari transkripsiyalaridir. Skripka konsertini qayta ishlash va klavirga moslashtirish jarayonida Bax yangi janrni o‘zlashtirdi, virtuozi-klavir uslubini rivojlantirish uchun zarur bo‘lgan usullarni tanlab oldi. Forte piano konserti evolyutsiyasida Iogan Sebastyan Baxning ikki o‘g‘li Filip Emmanuel va Iogan Kristianlarni xissasi katta. Filip Emmanuel orkestrning rivojlanishiga katta e‘tibor bergan va uni dramatik kuchaytirgan. Iogan Kristian esa konsert musiqasining virtuozi va kuychang, ohangdor xususiyatlarini mukammallashtirgan.

I. S. Bax ushbu janrdagi asarlarini A. Vivaldi singari uch qismli shaklda va modal kontrast bilan yozgan, faqat italiyalik hamkasbidan farqli o‘laroq, u skripkani emas, balki fortepiano konsertining rivojlanishi uchun asos bo‘lgan klavir konsertlarini afzal ko‘rgan. Cholg‘u konsert janrining mashxurligi o‘shishda davom etdi. XVIII asrning oxiriga kelib, bitta yakkaxon cholg‘u uchun orkestr bilan konsertlar, ikki – «dvoynoy», uch – «troynoy» va hatto to‘rttagacha, shuningdek, solistlarsiz konsertlar kabi janrning turlari yoki faqat orkestrsiz yakkaxon cholg‘u uchun konsertlar keng tarqaldi. Barokko davrining eng yaxshi cholg‘u konsertlari qatoriga Gendelning 1740–yilda nashr etilgan Korellining konserto grosso asosida yaratilgan 12 ta konserti kiradi. I.S.Baxning klavir uchun oltita, skripka uchun ikkita va Brandenburg konsertlari umuman olganda barchasi A.Vivaldi konsertlari namunasiga amal qiladi.

Barokko davri o‘rniga klassitsizm davri kelganida, cholg‘u konsert janri o‘z rivojlanishida ishonch bilan oldinga qadam tashladi. Aynan shu davrda Vena klassiklari: Gaydn, Motsart va Betxoven asarlarida asosiy uch qismli shakl to‘liq o‘rnatildi. Dastlab birinchi qism qo‘sh ekspozitsiyali sonata allegro shaklida tuzilgan, ya‘ni asosiy va yondosh partiyalar avval orkestrda, so‘ngra yakkaxon cholg‘u tomonidan ijro etilgan. Shuningdek, ushbu qism oxirida kadensiya – virtuozi epizod taqdim etila boshlandi, yakkaxon ijrochi improvizatsiyasi o‘zining texnik mahoratini namoyish etish imkoniyatini berdi.

Bu an‘ana uzoq vaqt davom etdi va faqat Betxovendan keyingi davrda kadensiya mualliflar tomonidan yozila boshlandi va kompozitsiya g‘oyasini rivojlantirishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi. Biroq, agar bu yoki boshqa shakldagi kadensiya cholg‘u konsertga kiritilgan bo‘lsa va bugungi kunda asosiy mavzularning ikkilamchi namoyishi asta-sekin yo‘qoldi. Ikkinchisi qism – sekin templi qism, asar muallifining ixtiyoriga ko‘ra yozilgan va hech qanday aniq shaklga ega emas edi. Keyinchalik

bu qism oddiy uch qismli, baʼzan ikki qismli, romans, arioz va hatto variatsiya shakllarida yozilgan. Uchinchi yaʼni oxirgi qismda yana jonli tempga ustunlik berildi va shuning uchun bu qism aksariyat hollarda sonata yoki rondo shaklida yaratilgan. Hozir klassik deb ataladigan konsertning bunday tuzilmasi Gaydn va Motsart tomonidan yaratilgan, keyin esa Betxoven asarlarida qayta tugʻildi va oʻzini namoyon qildi.

Gaydn va Motsart bir davrda yashagan, ular bir xil ijtimoiy-tarixiy vaziyat, ijtimoiy muhit va badiiy-uslubiy muhit bilan oʻralgan va shakllangan. Gaydn va Motsartni oʻz davrining qadriyat yoʻnalishlaridan va estetik ideallaridan, mavjud janr va ijro amaliyotining yoʻnalishlaridan ajratib qoʻyish mumkinligini tasavvur qilib boʻlmaydi. Y. Gaydnning koʻplab cholgʻu konsertlari klassik kontekstga organik ravishda mos keladi. Bastakor qirq yil davomida bu janr ustida samarali ijod qilgan. 1756 yili kompozitorning birinchi klavir va orkestr uchun (C dur) konserti dunyo yuzini koʻrdi. Y. Gaydnning son jihatidan koʻp va mazmunan xilma-xil cholgʻu konsertlari bir tomondan, orkestr va simfonik ijodiyotning davomi, boshqa tomondan esa oʻsha davr musiqasining organik evolyutsiyasi natijasidir.

V. A. Motsartning ijodida cholgʻu konserti yakkaxon ijrochi va orkestr oʻrtasidagi haqiqiy raqobatga aylandi. Kompozitor ijodida yangi simfonik janrga haqiqiy «hayot boshlanishi» ni berdi. I. S. Bax va A. Vivaldi cholgʻu konsertlarida yakkaxon cholgʻu qismi asosan orkestr bilan birlashgan va unchalik individual boʻlmagan boʻlsa, Motsart konsertlarida esa ifoda chuqurligi, shakl uygʻunligi, barcha musiqalardan maksimal darajada foydalanish bilan chambarchas bogʻlandi. Motsart oʻzidan oldingi ijodkorlarning izlanishlarini sintez qildi. Shuningdek, u zamonaviy fransuz skripka maktabining baʼzi yutuqlarini fortepiano (klavir) konsertlarida qoʻlladi.

Koʻp yillar davomida Motsart yaratgan konsert turi badiiy meʼyor boʻlib xizmat qildi, orkestr va solo oʻrtasidagi dialog tamoyili konsert timsolining ideal namunasiga aylandi. Motsartning cholgʻu konsertlari asarda yakkaxon ijrochini yetakchik rolini olgʻa surdi. Konsertlari ustida ishlashda buyuk kompozitorning ijrochilik faoliyati katta ahamiyatga ega edi. Motsart oʻz davrining eng yaxshi pianinotchilaridan biri boʻlgan va albatta, oʻz ijrosi asosida koʻplab fortepiano konsertlarini yozgan. Skripka va orkestr uchun konsertlari ilk ijrolarini ham kompozitorning oʻzi konsertlarda solist sifatida ijro etgan.

XIX asrda Klassizm davridan keyin kelgan romantizm davri musiqa sanʼatiga yangi obrazli dunyoni kiritdi. Bu davrda Vena klassiklari tomonidan yaratilgan cholgʻu konsertlari ayniqsa Betxoven tomonidan yaratilgan cholgʻu konsertlarni simfonizatsiya qilish koʻplab kompozitorlarning ijodida davom ettirildi. Musiqada dasturlashning oʻrni, insonning shaxsiy hissiy kechinmalariga eʼtibor kuchaydi. Bularning bari ushbu cholgʻu konsert janriga oʻz tasiri koʻrsatmay qolmadi. Shu bilan birga, ajoyib musiqiy ijodkorlar ushbu janrga juda koʻp yangi narsalarni olib kelishdi. Ular «rivojlanish yoʻli bilan», leytmotiv bogʻlanish va monotematizm⁴ tamoyiliga ustunlik berib, bir-biri bilan chambarchas bogʻlangan boʻlimlardan iborat bir qismli asarlar yaratdilar. Masalan, Ferens List bir qismli konsert yaratdi, unda barcha qismlar bir butunga birlashdi, lekin Iogan Brams, aksincha, oʻzining fortepiano va orkestr uchun ikkinchi konsertini uchta emas, toʻrt qismga ajratdi. F. Mendelsson, F. Shopen, R. Shuman, E. Grig kabi kompozitorlarning ijodidagi cholgʻu konsertlari lirikaga intilishni ochib berdi. Bu oʻz navbatida, konsertning virtuozi elementi rolining pasayishiga olib keldi.

Romantik kompozitorlar asarlari lirik va lirik-dramatik kayfiyati bilan ajralib turadi. Klassitsizm davri cholgʻu konsertlarida yakkaxon asbob va orkestr teng huquqli ahamiyatga ega boʻlgan, biroq, romantizm davrida cholgʻu konsertida bosh rol yakkaxon asbobga berildi, orkestr esa faqat kamtarona joʻrnavoqlik vazifasini bajardi. XIX asr oʻrtalariga kelib, cholgʻu konsert janri shartli ravishda ikki turga boʻlindi: virtuozi va simfonik. Virtuoz musiqa yaratish va gʻoyani simfonik rivojlanishi janrning ikki turga boʻlinishini oldindan belgilab berdi. Simfoniklik va konsertlilik oʻzaro qarama-qarshi

⁴**Monotematizm** – Sonata-simfonik sikl yoki undan olingan bir mavzuni bir qismli shakl bilan birlashtirib musiqiy asar yaratish tamoyili. // V.P. Bobrovskiy «Большая советская энциклопедия» 1979 yil.

kuchlar sifatida paydo bo'ldi. Ulardan birinchisi o'zining ekstremal ifodasida simfonik tamoyillarning mutlaq ustunligi bilan «simfonik-konsert»ning paydo bo'lishiga olib keldi, lekin bunday konsertlarda virtuoz vositalar albatta saqlanib qolgan. Ikki tamoyilning eng uyg'un sintezi F. Mendelson, I. Brams va J. Sibeliusning konsertlarida yaqqol namoyon bo'ladi. Xuddi shu davrda cholg'u konserti rus musiqasida ham o'zining munosib o'rnini topdi. Uning asoschisi P. I. Chaykovskiy va izdoshlari S. Raxmaninov, A. Glazunov, S. Prokofyevlar jahon mumtoz musiqasining oltin fondiga kirgan yorqin asarlar yaratdilar.

Cholg'u konsert janri ma'lum bir davrning uslubiy tendentsiyalariga bo'ysungan holda uzoq shakllanish va rivojlanish yo'lini bosib o'tdi. Ushbu janr davrlar osha kompozitorlar ijodida har doim ham muhim rol o'ynamagan. Konsert janr sifatida cholg'u ijodining boshqa janrlari tomonidan vaqtincha chetga surilgan paytlari ham bo'lgan, lekin ijrochilik an'anasi, janrning ijodiy rivojlanishi va taraqqiyotini to'xtatishga yo'l qo'ymadi.

XX asrga kelib cholg'u konserti o'zining jadal rivojlanishini davom ettirdi. Ushbu davr ijodkorlari yani, kompozitorlar an'anaviy janrga qo'shimcha ravishda yakkaxon cholg'u bilan bir qatorda turli xil beqaror kompozitsiyalar uchun ansambl konsertlariga ega bo'lib, ularda kutilmagan asboblarning kombinatsiyalari qo'llanildi. Albatta bularning barchasi mutlaqo yangilik emas lekin, bu o'z o'rnida yangi davr izlanishlari bilan bog'liq. O'tgan davr isloxotlari XX asr kontekstiga kiradi va har bir yangi narsa tarixiy nuqtai nazarga egadir. Zamonaviy cholg'u konsert janri tarixiy harakat natijasidir.

Ushbu janrga bebaho hissa qo'shgan barcha kompozitorlarni sanab o'tish juda qiyin, lekin Sergey Prokofyev, Aram Xachaturyan, Dmitriy Shostakovich, Igor Stravinskiy, Paul Hindemit, Bela Bartok, Jorj Gershvin, Arnold Shonberg, Darius Mio, Moris Ravel, Richard Shtraus, Nikolay Myaskovskiy, Nikolay Metner, Jan Sibelius, Alfred Shnitke va Rodion Shedrin kabi taniqli maestro kompozitorlarni alohida ta'kidlash lozim. XX asrda kompozitorlar Yevropaning deyarli barcha klassik musiqa asboblari uchun konsertlar yaratdilar. Ushbu asr kompozitorlari ijodida eski cholg'u konsertni qayta tiklash tendentsiyalari ham mavjud. Misol tariqasida; Gershvin va Xachaturyan asarlarida ajoyib virtuoz «barokko» davri an'analari jonlanadi, eski musiqa janrlarning qayta tiklanishini P. Hindemit, B. Bartok va I. Stravinskiy asarlarida kuzatish mumkin.

Ushbu cholg'u konsert janri davrlar oralig'ida rivojlanib sayqal topdi. Cholg'u konserti keng ko'lamli musiqa janrlarining eng qadimiysi bo'lib, kompozitorlarning samarali ijod faoliyati natijasida o'zining musiqa industriyasida o'chmas o'rniga ega bo'ldi. Aytish joizki ushbu janr ijrochilik faoliyatida ham muhim ahamiyatga ega. Yakkaxon cholg'u ijrochilarning konsert dasturlarini cholg'u konsertisiz tasavvur qilish qiyin albatta. Atoqli kompozitorlarning cholg'u konsertlari cholg'u ijrochilik faoliyatidagi ko'plab ko'rik-tanlovlar majburiy asarlar dasturidan o'rin olgan.

Foydalangan adabiyotlar:

1. *Друскин М.* «Избранное монографии и статьи». – М.: Советский композитор – 1981 год
 2. *Бобровский В.* «О переменности функций музыкальной формы». – М.: Музыка, 1970 год
 3. *Асафьев Б.* Музыкальная форма как процесс. Кн. 1-П. Л.: Музгиз, 1963 год
 4. *Бурлина Е.Я.* «Культура и жанр: Методологические проблемы жанрообразования и жанрового синтеза». Саратов: изд.-во Саратовского университета, 1987 год
 5. *Abdullo Saidkhonov Sadrullo Ogli.* «Prospects for the Development of Culture in Uzbekistan», International Journal on Integrated Education, vol. 3, no. 7, 2020, pp. 51-53.
-